



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “30” aprel

BUYRUQ № 86

Toshkent sh.

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot
(xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishini hisoblash bo‘yicha
uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114- son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishini hisoblash bo‘yicha uslubiyatni yanada takomillashtirish maqsadida, buyuraman:

1. “Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 28- iyuldagi “Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 26- son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining
2024- yil 30- aprel dagi
86 - sonli buyrug'iga
ilova

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot
(xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishini hisoblash bo'yicha
Uslubiy nizom**

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishini hisoblash bo'yicha Uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom), iqtisodiyotning agrar tarmog'i muhim indikatorlaridan biri hisoblanadigan va O'zbekiston Respublikasi, uning hududlari asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini shakllantirish uchun foydalaniladigan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi to'g'risidagi statistik axborotlarning shakllanish tartibini belgilaydi.

Ushbu uslubiy nizom statistika organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT-2)ning A seksiyasi "Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi" bo'yicha joriy va taqqoslama narxlarda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishini choraklik va yillik hisoblashlarni diskret choraklar asosida yil boshidan o'sib boruvchi yakunda o'tkazishda foydalanish uchun mo'ljallangan.

Uslubiy nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114- son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model- GSBPM) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi hisoblashlarini o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni va "Statistika dasturi" qonuniy asos bo'lib hisoblanadi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Uslubiy nizom GSBPM ning shakllantirish, yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va baholash bosqichlari doirasida ma'lumotlarni yig'ish mexanizmi, qayta ishlash va tahlil komponentlari, ishlab chiqarish jarayonlarini tartibga solish va

ishga tushirish, tanlanmani shakllantirish, kuzatuvni tashkil etish, amalga oshirish va yakunlash, tasniflash va kodlashtirish, xatoliklarni tekshirish, tahrirlash va imputatsiyalash, ulush (vazn)larni hisob-kitob qilish, umumlashtirish, qayta ishlashni yakunlash, dastlabki materiallarni tayyorlash, validatsiya qilish, tahliliy ishlarni yakunlash, baholash uchun ma'lumot yig'ish kabi jarayonlarini o'z ichiga oladi.

2. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishini hisoblash respublika va hududiy darajada tegishli yil uchun "Statistika dasturi"da va "Statistika ishlarini ishlab chiqish dasturi"da belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

3. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyatini umumlashtirilgan holda tavsiflash uchun o'zaro bog'liq bo'lgan natura va qiymat ko'rsatkichlari tizimidan foydalaniladi.

Ko'rsatkichlar tizimida asosiy o'rinni, qishloq xo'jaligi statistikasida mahsulotlarning aniq turlari yetishtirilishini tavsiflash uchun foydalaniladigan natura ko'rsatkichlari egallaydi. Lekin, bu ko'rsatkichlar har xil turdagi mahsulotlar bo'yicha jamlanma natijalarni olish imkoniyatini bermaydi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyatining jamlanma tavsifi, soha faoliyatining jamlanma yakuniy natijalarini olishga imkon beradigan har xil turdagi mahsulotlarning taqqoslanishini ta'minlaydigan qiymat ko'rsatkichlaridan foydalanilgan holdagina mumkin bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi statistikasida asosiy jamlanma qiymat ko'rsatkichi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi hisoblanadi.

4. Mazkur Uslubiy nizomda quyidagi muhim tushunchalar qo'llaniladi:

qishloq xo'jaligi – dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan soha;

dehqonchilik – qishloq xo'jaligi ekinlarini o'stirish va yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligi sohasi. Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish bir - ikki va ko'p yillik ekinlarni, shuningdek, urug'lik va ko'chat materiallarini o'stirish va yetishtirishni o'z ichiga oladi;

chorvachilik – qishloq xo'jaligi hayvonlari, parrandalari, asalarilari va ipak qurtini o'stirish va urchitish bilan bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligi sohasi;

o'rmon xo'jaligi – faoliyat turi o'rmon resurslarini takror ishlab chiqarish va o'rmon resurslaridan foydalanish, xususan o'rmonchilik, o'rmonzorlarni barpo etish va yog'ochni qayta ishlash tarmoqlari uchun binokorlik dumaloq

yog'ochlarini yetishtirish, shuningdek, yovvoyi holda o'suvchi o'rmon mahsulotlarini yig'ish bilan bog'liq bo'lgan soha. O'rmon xo'jaligi faoliyati tabiiy o'rmonlar yoki sun'iy o'rmonzorlar doirasida amalga oshiriladi;

o'rmonchilik va o'rmonzorlarni barpo etish – imoratbop yog'och-taxta o'rmon daraxtlarini o'tqazish, qayta o'tqazish, ko'chirib o'tqazish, shuningdek, yoqilg'i yog'ochlarni qo'shgan holda, novdadan o'tqazilgan yosh o'rmonlarni o'stirish, o'rmon va o'rmonning daraxt kesish uchun ajratilgan uchastkasini siyraklashtirish va muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan o'rmon xo'jaligi faoliyati sohasi. O'rmonchilik faoliyati, shuningdek, o'rmon daraxtlari ko'chatlarini ko'paytirish va ularni parvarish qilish bilan ham bog'liq;

yog'och tayyorlash – yog'ochni qayta ishlash tarmog'i uchun dumaloq binokorlik yog'ochlarini yetishtirish, shuningdek, yoqilg'i yog'och – yog'och ko'mir, yog'och parchalari va boshqalarni yig'ish va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan o'rmon xo'jaligi faoliyati turi;

yog'och bo'lmagan o'rmon mahsulotlari – o'rmon xo'jaliklari tomonidan odamlar yoki hayvonlar uchun oziq-ovqat, shuningdek, boshqa foydalanish maqsadlarida dorivor yoki kosmetik o'simliklar sifatida yetishtiriladigan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar guruhi;

baliqchilik xo'jaligi – baliq ovlash va suv bioresurslarini, akvakulturaning saqlash, suv bioresurslaridan olinadigan baliq va boshqa mahsulotlarni yetishtirish va sotish bo'yicha faoliyat turi;

qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish, qishloq xo'jaligi hayvonlarini, parrandalarini, asalarilarini, ipak qurtini, baliqlarni saqlash va ko'paytirish, yog'och, yog'och bo'lmagan yovvoyi holda o'suvchi o'rmon xo'jaligi mahsulotlarni olish, suv organizmlarini ovlashni o'z ichiga oladi;

qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi;

dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi – dehqonchilikda tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatlarining o'zgarishini hisobga olgan holda, yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik

mahsulotlari, shuningdek, ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar qiymatlarining umumiy yig'indisini o'zida ifodalaydi;

yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining qiymati – joriy yil hosildan olingan barcha qishloq xo'jaligi ekinlarining don, texnik ekinlar, kartoshka, sabzavotlar va poliz ekinlari, mevalar va rezavorlar, uzum, ozuqa ekinlari, urug'lik va o'tqaziladigan ko'chat materiallari, shuningdek, dehqonchilikda tugallanmagan ishlab chiqarish, dehqonchilikning boshqa turdagi mahsulotlari qiymatlarini o'z ichiga oladi;

dehqonchilikda tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatlari – kelgusi yil hosili uchun joriy yil xarajatlarini, yerlarga ishlov berish va yerlarni shudgor qilish bo'yicha xizmatlarni, kuzgi ekinlarni ekish uchun yerlarni tayyorlash, ko'p yillik daraxtlarni o'tqazish va xo'jalikda foydalanish yoshigacha o'stirish xarajatlarini o'z ichiga oladi;

ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlarining qiymati – qishloq xo'jaligi hayvonlarini, parrandalarini, asalarilarni, ipak qurtini o'stirish natijasida olingan mahsulotlar (go'sht, sut, tuxum, jun, qorako'l, asal, pilla, mo'yna, shuningdek, chorvachilikning boshqa turdagi mahsulotlari) qiymatlarini o'z ichiga oladi.

Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish xarajatlari yil davomida bir maromda amalga oshiriladi va chorvachilikning hisobot yilidagi barcha xarajatlari, odatda joriy yil mahsulotlari tannarxi tarkibiga qo'shiladi, shuning uchun aralash yillar xarajatlarining hisobida ular tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida ajratilmaydi;

dehqonchilik va chorvachilik sohasidagi xizmatlar qiymati – hosilni yig'ib olish, yerlarni yaxshilash bo'yicha xizmatlar, tuproqni kimyolashtirish, o'g'itlarni tayyorlash va solish bo'yicha xizmatlar, qishloq xo'jaligi ekinlarini kasalliklardan va zararkunandalardan himoya qilish bo'yicha xizmatlar, agromeliorativ ishlarni o'tkazish bo'yicha xizmatlar, suv xo'jaligi tashkilotlarining irrigatsion va meliorativ tizimlarni ekspluatatsiya qilish bo'yicha xizmatlari, qishloq xo'jaligi hayvonlarini, parrandalarini, asalarilarni, ipak qurtini ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha xizmatlar, qishloq xo'jaligiga zootexniya xizmati ko'rsatish va boshqalar qiymatini o'z ichiga oladi;

joriy narxlar – ko'rib chiqilayotgan davrda amal qiladigan narxlar;

taqqoslama narxlar – turli davrlar uchun mahsulot ishlab yetishtirishning fizik hajmini qiymat ko'rinishida taqqoslashda shartli ravishda baza sifatida qabul qilinadigan ma'lum bir yil yoki davr narxlari;

ekstrapolyatsiya – joriy narxlardagi bazis davr ma'lumotlarini fizik hajm indeksiga yoki tegishli iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasini aks ettiruvchi natural indikatorga ko'paytirish.

**2-bob. IFUT-2, A seksiyasi bo'yicha qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari
yalpi ishlab chiqarishini yil boshidan
o'sib boruvchi yakunda hisoblash**

5. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT-2)ga muvofiq, A seksiya "Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi" 3 ta bo'limdan, ya'ni, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish (01- bo'lim), o'rmonchilik va yog'och tayyorlash (02-bo'lim), baliq ovlash va akvakulturadan (03 bo'lim) tashkil topgan.

6. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishining qiymat ko'rinishidagi hajmi, barcha ishlab chiqaruvchilar tomonidan yetishtirilgan dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik, o'rmonchilik va baliqchilik mahsulot (xizmat)lari yig'indisi sifatida shakllanadi.

7. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishini hisoblash joriy va taqqoslama narxlarda choraklik asosda tezkor ma'lumotlar bo'yicha (joriy hisoblashlar) va yillik asosda yakuniy ma'lumotlar bo'yicha (yillik hisoblashlar) amalga oshiriladi. Hisoblash yil boshidan o'sib boruvchi yakunda amalga oshiriladi.

8. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishini hisoblash qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari toifalari, shu jumladan fermer, dehqon va tomorqa xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar va boshqalar darajasida, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri kesimida, tumanlar va shaharlar bo'yicha, shuningdek, mahsulot turlari bo'yicha amalga oshiriladi. Shundan so'ng, olingan ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yaxlit holda umumlashtiriladi.

1-§. Mahsulotlarning fizik hajmini aniqlash

9. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishini hisoblash mahsulotlarning fizik hajmini aniqlashdan boshlanadi. Hisoblash uchun mahsulot yetishtirishning fizik hajmi barcha ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilgan dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari, xizmatlar sifatida shakllantiriladi (1-ilova).

10. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmlari mahsulot turlari bo'yicha fizik o'lchov birligi (tonna, dona)da hisobga olinadi (1-2 va 3-ilovalar).

11. Ishlab chiqarishning fizik hajmiga ishlab chiqarish jarayoni natijasida yetishtirilgan barcha mahsulotlar, jumladan ishlab chiqaruvchilar tomonidan o'z shaxsiy iste'moli uchun foydalanilgan mahsulotlar hajmi kiritiladi.

12. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishning fizik hajmlarini aniqlash uchun axborot manbalari bo'lib, 7-bobda keltirilgan manbalar xizmat qiladi.

13. Mahsulotlarning fizik hajmi aniqlanganidan so'ng ularni qiymat ko'rinishida baholash amalga oshiriladi.

**§ 2. IFUT-2, A seksiyaning 01 bo'limi bo'yicha dehqonchilik
va chorvachilik, ovchilik mahsulot (xizmat)lari yalpi
ishlab chiqarishini joriy narxlarda hisoblash**

14. Yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining qiymatlarini amaldagi, joriy narxlarda hisoblash, hisobot davrida yetishtirilgan barcha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ularning o'rtacha sotish narxlari bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri baholash yo'li bilan, mahsulot turlari va har bir qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari toifalari bo'yicha alohida quyidagi formuladan foydalangan holda amalga oshiriladi, bunda, yetishtirilgan mahsulotning fizik hajmi uning o'rtacha sotish narxiga ko'paytiriladi (2-ilova):

$$S_{i1} = k_{i1} \times p_{i1},$$

bu yerda, S_{i1} – yetishtirilgan i -turdagi dehqonchilik va chorvachilik mahsulotining joriy narxlardagi qiymati;

k_{i1} – hisobot davrida yetishtirilgan i -turdagi mahsulotning fizik hajmi;

p_{i1} – i -turdagi mahsulotning hisobot davridagi o'rtacha sotish narxi;

Masalan, hisobot davrida yil boshidan 100 tonna don ekinlari yetishtirilgan, uning 1 tonnasining joriy narxlardagi sotish narxi 200 ming so'mni tashkil qiladi.

$$S_{i1} = 100 \times 200000 / 1000000 = 20 \text{ mln. so'm.}$$

Demak, hisoblash yakunlariga ko'ra, don ekinlarining joriy narxlardagi qiymati baholashga ko'ra 20 mln. so'mni tashkil qiladi.

15. Boshqa dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining qiymatlari ham shu kabi hisoblanadi va har bir mahsulot (i) turi bo'yicha olingan ma'lumotlar jami dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari qiymati sifatida jamlanadi.

16. Shunday qilib, jami dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari qiymatlarini hisoblashni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$S_{jor.deh/chor.} = \sum_{i=1}^n (k_{i1} \times p_{i1}),$$

bu yerda, $S_{jor.deh/chor.}$ – yetishtirilgan jami dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining joriy narxlardagi qiymati;

k_{i1} – yetishtirilgan i turdagi mahsulotning fizik hajmi;

p_{i1} – i turdagi mahsulotning hisobot davridagi o‘rtacha sotish narxi;

17. Hisoblashda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari asosiy va boshqa turlar bo‘yicha guruhlanadi.

Asosiy turdagi mahsulotlar – oziq-ovqat mahsulotlarini va qayta ishlash tarmoqlari uchun qishloq xo‘jaligi xomashyosini yetishtirish bo‘yicha katta ahamiyatga ega bo‘lgan mahsulot turlari.

Boshqa turdagi mahsulotlar – aholi uchun oziq-ovqat mahsulotlari va qayta ishlash tarmoqlari uchun qishloq xo‘jaligi xom-ashyosi sifatida kam ahamiyatga ega bo‘lgan mahsulot turlari.

18. Dehqonchilikda asosiy turdagi mahsulotlarga don ekinlari, paxta xom ashyosi, kartoshka, sabzavot va poliz ekinlari, mevalar, rezavorlar va uzum, chorvachilikda esa – tirik vaznda go‘sh, sut, tuxum, asal, jun, qorako‘l teri va pilla yetishtirish kiradi.

19. Dehqonchilikda boshqa turdagi mahsulotlarga tamaki, dorivor ekinlar, kanop, qand lavlagi, kungaboqar, soya, kunjut, maxsar, yeryong‘oq, sabzavot ko‘chatlari, sabzavot va poliz ekinlari urug‘lari, gullar, gul ko‘chatlari, poxol, somon, don ekinlari poyasi, tut bargi, g‘o‘zapoya yetishtirish, shuningdek, ko‘p yillik yosh ko‘chatlarni o‘stirish va tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatlari kiradi (4-ilova).

20. Chorvachilikda boshqa turdagi mahsulotlarga yetishtirilgan asalari mumi, gul changi, ona asalari suti, propolis, asalari zahri, asalari uyalari, ipak qurti tuxumi (grena), mo‘ynali hayvonlar mahsulotlarini, par, pat, go‘ng, axlat, shuningdek, olingan nasl, qishloq xo‘jaligi hayvonlarining spermasi (maniy) va embrionlari qiymati kiradi (4-ilova).

21. Dehqonchilikda tugallanmagan ishlab chiqarish qiymati kelgusi yil hosili uchun joriy yilning kuzida ekilgan kuzgi ekinlarning turlari bo‘yicha 1 gektariga

bo'lgan xarajatlarni ularning jami ekin maydoniga ko'paytirish yo'li bilan quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$N_{\text{deh.}} = z_{\text{kuz.jor.}} \times p_{\text{t.kuz.jor.}},$$

bu yerda, $N_{\text{deh.}}$ – dehqonchilikda tugallanmagan ishlab chiqarish qiymati;

$z_{\text{kuz.jor.}}$ – kelgusi yil hosili uchun joriy yilning kuzida ekilgan kuzgi ekinlarning 1 gektariga bo'lgan xarajatlar;

$p_{\text{t.kuz.jor.}}$ – kelgusi yil hosili uchun joriy yilning kuzida ekilgan kuzgi ekinlarning umumiy maydoni.

22. Hisoblashda oldin asosiy turdagi dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining qiymatlari aniqlanadi, keyin ularga yuqorida 13 va 15-bandlardagi formula bo'yicha hisoblangan boshqa turdagi mahsulotlar qiymatlari qo'shiladi.

23. Dehqonchilik va chorvachilik sohasida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatlarini hisoblash quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$S_{\text{xiz. deh./chor.}} = S_{\text{xiz. bozor.}} + S_{\text{xiz.nobozor.}},$$

bu yerda, $S_{\text{xiz. deh./chor.}}$ – dehqonchilik va chorvachilik sohasidagi xizmatlar qiymatlari;

$S_{\text{xiz. bozor.}}$ – bozor xizmati qiymatlari;

$S_{\text{xiz.nobozor.}}$ – davlat bujeti mablag'laridan moliyalashtiriladigan nobozor xizmat qiymatlari.

24. Shunday qilib, dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishini hisoblashni quyidagi formula bilan ifodalalash mumkin:

$$Vv_{\text{deh./chor.}} = (S_{\text{deh.}} + N_{\text{deh.}}) + S_{\text{chor.}} + S_{\text{xiz.deh./chor.}},$$

bu yerda, $Vv_{\text{deh./chor.}}$ – dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi;

$S_{\text{deh.}}$ – dehqonchilik mahsulotlari qiymati;

$N_{\text{deh.}}$ – dehqonchilikda tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatlari;

$S_{\text{chor.}}$ – chorvachilik mahsulotlari qiymati;

$S_{\text{xiz.deh./chor.}}$ – dehqonchilik va chorvachilik sohasidagi xizmatlar qiymati.

25. Ov xo'jaligida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati ov natijasida olingan yovvoyi va yirtqich hayvonlar qiymatlarini, yovvoyi hayvonlarni

muhofaza qilish, ularning sonini hisobga olish va joylashtirish, ovchilikni tashkil etish va ov iqtisodiy kuzatuvlari, ovchilik hamda yovvoyi hayvonlar va yirtqich hayvonlarni ovlash va ko'paytirish sohasida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatlari kabi ovchilik xo'jaligini yuritish xarajatlarini o'z ichiga oladi.

26. A seksiya 01 bo'lim bo'yicha, dehqonchilik, chorvachilik va ovchilik sohasi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishini joriy narxlarda yakuniy hisoblashni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$Vv_{01\text{sek. A}} = Vv_{\text{deh./chor.}} + S_{\text{ov.}}$$

bu yerda, $Vv_{01\text{sek. A}}$ – A seksiya 01 bo'lim, dehqonchilik, chorvachilik va ov sohasidagi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi;

$Vv_{\text{deh./chor.}}$ – dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi;

$S_{\text{ov.}}$ – ov xo'jaligida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lari qiymati.

§ 3. IFUT-2, A seksiyasining 02 bo'limi bo'yicha o'rmonchilik va yog'och tayyorlash sohasida mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishini joriy narxlarda hisoblash

27. O'rmonchilik va yog'och tayyorlash sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati, asosiy foydalanish uchun kesish paytida tayyorlangan o'tinlar va o'rmonlarni parvarish qilish, kesish, o'rmon daraxtlarini rekonstruksiya qilish va tanlanma sanitariya kesish, o'rmonlarni o'stirish, o'rmonlarni qayta tiklash va o'rmon xo'jaligini yuritish xarajatlari, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash bilan bog'liq ko'rsatilgan texnik xizmatlarning joriy narxlardagi qiymatlarini o'z ichiga oladi.

28. O'rmonchilik va yog'och tayyorlash sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmatlar)lar qiymatlariga davlat budjetini bajarish to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari bo'yicha hisoblangan nobozor xizmatlari hajmi ham qo'shiladi.

§ 4. IFUT-2, A seksiyaning 03 bo'limi bo'yicha baliq ovlash va akvakultura sohasida mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishini joriy narxlarda hisoblash

29. Baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati ovlangan baliqlar, olingan dengiz mahsulotlari qiymatlarini, dengiz va daryo organizmlarini va o'simliklarini ko'paytirish xarajatlarini, shuningdek, baliq

ovlash va baliqchilik bilan bog'liq bo'lgan xizmatlarning joriy narxlardagi qiymatlarini o'z ichiga oladi.

**§ 5. A seksiya bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishini joriy
narxlarda yakuniy hisoblash**

30. A seksiya bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishini joriy narxlarda yakuniy hisoblashni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$Vv_{\text{sek. A}} = Vv_{01 \text{ sek. A}} + Vv_{02 \text{ sek. A}} + Vv_{03 \text{ sek. A}},$$

bu yerda, $Vv_{\text{sek. A}}$ – qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi;

$Vv_{01 \text{ sek. A}}$ – A seksiyaning 01 bo'limi, dehqonchilik, chorvachilik va ov sohasidagi mahsulot (xizmat)lar yalpi ishlab chiqarishi;

$Vv_{02 \text{ sek. A}}$ – A seksiyaning 02 bo'limi, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash sohasidagi mahsulot (xizmat)lar yalpi ishlab chiqarishi;

$Vv_{03 \text{ sek. A}}$ – A seksiyaning 03 bo'limi, baliq ovlash va akvakultura sohasidagi mahsulot (xizmat)lar yalpi ishlab chiqarishi.

31. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishini joriy narxlarda hisoblash sxemasi Uslubiy nizomning 2-ilovasida ko'rsatilgan.

**§ 6. IFUT-2, A seksiyasi bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik
xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishini
taqqoslama narxlarda hisoblash, fizik hajm indeksini aniqlash**

32. Joriy narxlarda baholash qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida yetishtirilgan mahsulotlar fizik hajmining o'zgarishini to'g'ridan to'g'ri baholashga imkon bermaydi.

33. Shu maqsadda, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida yetishtirilgan mahsulotlar hajmini taqqoslama narxlarda baholash amalga oshiriladi.

34. Taqqoslama narxlarda komponentlarni baholashning asosiy usuli to'g'ridan-to'g'ri qayta baholash usuli hisoblanadi.

Ko'rsatkichlarni taqqoslama narxlarda to'g'ridan to'g'ri qayta baholash usulida, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab

chiqarishi, mahsulot turlari va har bir ishlab chiqaruvchilar toifasi bo'yicha alohida, hisobot davrida yetishtirilgan mahsulotlar hajmini mos ravishda o'tgan yil narxlariga ko'paytirish yo'li bilan quyidagi formuladan foydalangan holda hisoblanadi:

$$S_{i. \text{ taqqos.}} = k_{i1} \times p_{i0},$$

bu yerda, $S_{i. \text{ taqqos.}}$ – yetishtirilgan i -turdagi mahsulotning taqqoslama narxlardagi qiymati;

k_{i1} – hisobot davrida yetishtirilgan i -turdagi mahsulotning fizik hajmi;

p_{i0} – i -turdagi mahsulotning o'tgan yilning hisobot davridagi o'rtacha sotish narxi, ya'ni taqqoslama narx.

Masalan, hisobot davrida yil boshidan 100 tonna don ekinlari yetishtirilgan, uning 1 tonnasi uchun o'rtacha taqqoslama narxlardagi sotish narxi 150 ming so'mni tashkil qiladi:

$$S_{i. \text{ taqqos.}} = 100 \times 150000 / 1000000 = 15 \text{ mln. so'm.}$$

Demak, hisoblash yakuniga ko'ra, don ekinlarining taqqoslama narxlardagi qiymati baholashga ko'ra 15 mln. so'mni tashkil qiladi.

35. Boshqa dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining qiymatlari ham shu kabi hisoblanadi va uning har bir turi bo'yicha olingan ma'lumotlar jami dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining qiymati sifatida jamlanadi.

36. Shunday qilib, jami dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining qiymatini hisoblashni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$S_{\text{taqqos. deh./chor.}} = \sum_{i=1}^n (k_{i1} \times p_{i0}),$$

bu yerda, $S_{\text{taqqos. deh./chor.}}$ – yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining taqqoslama narxlardagi qiymati;

k_{i1} – hisobot davrida yetishtirilgan i -turdagi mahsulotning fizik hajmi;

p_{i0} – i -turdagi mahsulotning o'tgan yilning hisobot davridagi o'rtacha sotish narxi, ya'ni taqqoslama narx.

37. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining fizik hajmi indeksi (FHI) hisobot davridagi mahsulotlar hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan taqqoslama narxlardagi o'zgarishi sur'atini o'zida ifodalaydi.

Fizik hajm indeksi (FHI) sohada taqqoslanayotgan davrlarda ishlab chiqarish hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkich hisoblanadi. U mahsulotlarning fizik hajmi dinamikasini tahlil qilishda foydalaniladi.

38. Taqqoslama narx sifatida o'tgan yilning mos davridagi joriy narxlar qabul qilinadi. Fizik hajm indeksini tuzishdan asosiy maqsad, mahsulot yetishtirish darajasidagi nisbiy o'zgarishlarni obyektiv aks ettiradigan umumiy indeksni ishlab chiqishdan iborat. Bunday umumiy indeks Paashe indeksi hisoblanadi.

$$I_q = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0},$$

bu yerda, I_q – mahsulot yetishtirish fizik hajm indeksi;

q_1 – hisobot davridagi mahsulot yetishtirish fizik hajmi;

q_0 – bazis davrdagi mahsulot yetishtirish fizik hajmi;

p_0 – bazis davrdagi narx.

39. Har bir mahsulot turi bo'yicha fizik hajm individual indeksi va dehqonchilik, chorvachilik va butun qishloq xo'jaligi bo'yicha umumiy indeks hisoblanadi.

40. Fizik hajm individual indeksini hisoblash uchun hisobot davrida yetishtirilgan har bir turdagi mahsulotlar taqqoslama narxlarda baholanadi.

41. Fizik hajm umumiy indeksini hisoblash uchun tegishli mahsulotlar qiymati jamlanadi. Joriy davrda olingan qiymat agregati (jamlanma qiymat) bazis davr qiymat agregatiga bo'linadi va 100 ga ko'paytiriladi.

42. Yetishtirilgan boshqa turdagi mahsulotlar hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lmagan boshqa turdagi mahsulotlar qiymatini taqqoslama narxlarda qayta hisoblashda, har-bir asosiy turdagi dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari bo'yicha alohida hisoblangan fizik hajmi o'zgarishining xuddi shunday indeksi qo'llaniladi.

43. Dehqonchilikda tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatlarining taqqoslama narxlardagi qiymatining o'zgarishi o'tgan yilda ko'rsatilgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining ekin maydonlariga va mahsulotlar birligiga bo'lgan joriy xarajatlarning o'rtacha darajasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

44. Qishloq xo'jaligi sohasidagi xizmatlar va ov xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining taqqoslama narxlardagi yillik qiymatini baholash bazis davrdagi ma'lumotlarni bandlar sonining o'zgarishi indeksi orqali ekstrapolyatsiya qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Choraklik qayta hisoblashda taqqoslama narxlarning

ekstrapolyatori sifatida yuzaga kelgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining fizik hajmi indeksi qo'llaniladi.

45. O'rmonchilik va yog'och tayyorlash sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymatini taqqoslama narxlarda yillik qayta hisoblashda o'rmon daraxtlari maydonining o'zgarishi indeksi bo'yicha ekstrapolyatsiya usulidan foydalaniladi. Taqqoslama narxlarda choraklik baholashda tayanch (bazis) davridagi hajmlarni bandlar sonining o'zgarishi indeksi orqali ekstrapolyatsiya qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

46. Baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymatini taqqoslama narxlarda yillik va choraklik qayta baholash baliq ovlash hajmining fizik indeksi bo'yicha ekstrapolyatsiya qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

47. Uslubiy nizamning 3-ilovasida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishini taqqoslama narxlarda hisoblash sxemasi keltirilgan.

3-bob. Choraklik va yillik hisoblashlarning o'ziga xosligi

48. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishini choraklik hisoblash, hisobot davrida sohadagi joriy holatni dastlabki baholash maqsadida ishlab chiqiladi.

Hisobot yili davomida har chorakda dastlab ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlarsiz 01 bo'lim bo'yicha dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi hisoblanadi.

Shundan so'ng, dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishiga mos ravishda ovchilik xo'jaligi, 02 va 03 - o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura bo'limlari mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi hajmlari bo'yicha hisoblangan (baholangan) ma'lumotlar qo'shiladi.

49. Yillik hisoblashlar asosiy hisoblashlar bo'lib, unda mavsumiylik omillari yumshatiladi va ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining eng yuqori barqarorligiga erishiladi.

50. Yil yakuni bo'yicha yillik yakuniy statistik kuzatuvlar ma'lumotlariga asoslanib, to'liq A seksiya bo'yicha yakuniy yalpi ishlab chiqarish aniqlanadi. Yillik yakuniy hisoblashlar yakunlanganidan so'ng unga asosan choraklik hisoblashlarga aniqlik kiritiladi va qayta hisoblanadi.

51. Yilning birinchi choragida dehqonchilik sohasi bo'yicha hisoblash (baholash) asosan yopiq yerlardagi tayyor mahsulotlar, bundan tashqari kam miqdorda ochiq yerlardagi sabzavot ekinlari, kartoshka, mevalar va rezavorlar bo'yicha amalga oshiriladi, dehqonchilik bo'yicha qolgan ko'rsatkichlar mazkur chorakda tugallanmagan ishlab chiqarish hisoblanadi.

52. Hisobot yilining ikkinchi choragidan qishloq xo'jaligi ekinlari, mevalar, rezavorlar, uzum va boshqalarning erta pishar turlari va navlari hosilini yig'ib olish boshlanadi. Lekin, bu davrda paxta xom-ashyosi, sholi va ayrim kechpishar qishloq xo'jaligi ekinlari, mevalar, rezavorlar va uzum turlari va navlari tugallanmagan ishlab chiqarish hisoblanadi.

